haqiqat" haqidagi metafizik qarashlarni rad etib, haqiqatning doimiy ravishda qayta talqin qilinishini ko'rsatadi. Shu tariqa, postmodernizm modernlikning qat'iy va yaxlit tizimlariga qarshi plyuralizm, fragmentatsiya va diskursiv ko'plikka asoslangan yangi madaniy-falsafiy tafakkurni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Lyotard J.F. The Postmodern Condition: A Report on Knowledge. Manchester, University Press. 1984, 141 p.

(2). Existentialism from Dostoyevsky to Sartre, ed. Walter Kaufman, Meridian Publishing Company, 1989, 95 p.

(3). Nietzsche F. On the Genealogy of Morality (trans. Carol Diethe). Cambridge, Cambridge University Press, 2006, 211 p.

(4). Deleuze G. and Parnet C. Dialogues II (trans. Hugh Tomlinson and Barbara Habberjam). New York, Columbia University Press. 2007, 144 p.

(5). Derrida J. Spurs: Nietzsche's Styles. Chicago, University of Chicago Press, 1979, 72 p.

(6). Derrida J. Writing and Difference. London, Routledge & Kegan Paul, 1978, 98-bet.

(7). Foucault M. Madness and Civilisation. London, Routledge, 1967, 206 c.

G'afurov Doniyor Orifovich (Buxoro Innovatsiyalar universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); gafurovdoniyor@gmail.com)

MAXDUMI A'ZAM DAHBEDIY TA'LIMOTIDA OILA FAROVONLIGI VA NIKOHNING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. *Maqolada Naqshbandiya silsilasining yetakchi nazariyotchisi Xojagiy Ahmad Kosoniy Maxdumi A'zam Dahbediy (1461–1542) intellektual merosidagi oilaviy farovonlik paradigmasi va nikoh fenomenining konseptual tahlili amalga oshirilgan. Globallashuv, raqamli mediatizatsiya va aksiologik pluralizm sharoitida Maxdumi A'zam meroshunosligining O'zbekiston Respublikasi oila institutini mustahkamlash strategiyasidagi konseptual ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Maxdumi A'zam Dahbediy, Naqshbandiya silsilasi, oilaviy farovonlik paradigmasi, "Asror un-nikoh" risolasi.*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ БЛАГОПОЛУЧИЯ СЕМЬИ И БРАКА В УЧЕНИИ МАХДУМИ АЗАМА ДАХБЕДИ

Аннотация. *В статье осуществлен концептуальный анализ парадигмы семейного благополучия и феномена брака в интеллектуальном наследии ведущего теоретика семьи Накшбандия Ходджаги Ахмада Косани Махдуми Аъзама Дахбеди (1461–1542). Обоснована концептуальная значимость наследия Махдуми Аъзама в стратегии укрепления института семьи Республики Узбекистан в условиях глобализации, цифровой медиатизации и аксиологического плюрализма.*

Ключевые слова: *Махдуми Аъзам Дахбеди, Накшбандия, парадигма семейного благополучия, трактат «Асрор ун-никах».*

SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF FAMILY WELL-BEING AND MARRIAGE IN THE TEACHINGS OF MAKHDUMI A'ZAM DAHBEDI

Annotation. *The article provides a conceptual analysis of the paradigm of family well-being and the phenomenon of marriage in the intellectual heritage of the leading theoretician of the Naqshbandi chain Khojagi Ahmad Kosani Makhdumi Azam Dahbedi (1461–1542). The conceptual significance of Makhdumi Azam's heritage in the strategy of strengthening the family institution of the Republic of Uzbekistan in the conditions of globalization, digital mediatization and axiological pluralism is substantiated.*

Key words: *Makhdumi Azam Dahbedi, Naqshbandi chain, family well-being paradigm, "Asror un-nikah" treatise.*

Kirish. Sayyid Ahmad ibn Sayyid Mavlono Jaloluddin Xojagiy Kosoniy Maxdumi A'zam Dahbediy (1461–1542) Naqshbandiya silsilasining XV–XVI asrlardagi yetakchi nazariyotchisi va ta'limotni tizimli rivojlantirgan mutafakkir hisoblanadi. Uning "Maxdumi A'zam" nomi bilan mashhur bo'lgan ilmiy maktabi Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkurida muhim o'rin egallab, silsilaning keyingi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Mutafakkirning o'ttizdan ortiq risolalaridan iborat merosida tasavvufiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy va oilaviy masalalar chuqur tahlil qilingan bo'lib, ular bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu qo'lyozmalar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Mazkur merosni zamonaviy oilashunoslik bilan uyg'unlashtirish, ayniqsa oila institutini mustahkamlashga qaratil-

gan davlat siyosati doirasida, Maxdumi A'zamning oilaviy farovonlik haqidagi qarashlarini globallashuv va zamonaviy ijtimoiy muammolar sharoitida muhim metodologik manba sifatida o'rganishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur mavzu doirasida adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Maxdumi A'zam Dahbediy merosi asosan tasavvufiy-falsafiy va axloqiy manbalar negizida o'rganilgan bo'lib, uning oila va nikoh masalalariga oid qarashlari alohida ilmiy yo'nalish sifatida yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Tadqiqotlarda "Asror un-nikoh", "Ganjnoma" va "Sharhi al-valadi sirru abiyhi" asarlari oilaviy munosabatlar, tarbiya va halol turmush masalalarini yorituvchi muhim manbalar sifatida baholanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa oila va nikohning ijtimoiy hamda axloqiy jihatlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, Maxdumi A'zam ta'limotini zamonaviy oilashunoslik bilan integratsiyalash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi kompleks va integrativ yondashuvga asoslanib, Maxdumi A'zam Dahbediy ta'limotida oila farovonligi va nikohning ijtimoiy-falsafiy talqinini chuqur tahlil qilishni nazarda tutadi. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik prinsiplari asosida asarlar evolutsiyasi o'rganilib, hermenevtik usul orqali ularning mazmuni tahlil qilinadi. Komparativ, tizimli va aksiologik yondashuvlar yordamida tasavvufiy qarashlar zamonaviy nazariyalar bilan solishtiriladi hamda umumiy xulosalar shakllantiriladi.

Tahlil va natijalar. Xojagiy Ahmad Kosoniy intellektual merosi konseptual jihatdan to'rtta asosiy yo'nalishga ajraladi: tasavvufiy-falsafiy ta'limot, oilashunoslik va etopedagogika, gerontologik-aksiologik qarashlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy etika. Ushbu yo'nalishlar o'zaro uyg'un holda mutafakkirning yaxlit oilaviy farovonlik konsepsiyasini shakllantiradi. Ayniqsa, "Asror un-nikoh" risolasi oilashunoslik yo'nalishining markaziy asari bo'lib, unda nikoh va oila masalalari XVI asr ijtimoiy hayoti kontekstida tahlil qilinadi va mavjud qarashlardagi chalkashliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Shuningdek, "Battixiya", "Ganjnoma", "Guli Navro'z" va "Sharhi al-valadi sirru abiyhi" kabi asarlar oilaviy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar va insoniy munosabatlarni yoritib, o'zaro bog'liq konseptual tizimni hosil qiladi.

"Asror un-nikoh" risolasi tasavvufiy oilashunoslikning muhim manbalaridan biri bo'lib, unda nikoh fenomeni ko'p o'lchamli ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin etiladi. Maxdumi A'zamga ko'ra, nikoh faqat huquqiy bitim emas, balki ilohiy hikmatga asoslangan institut bo'lib, u inson naslini davom ettirish, ijtimoiy tartibni saqlash, jamiyat farovonligini ta'minlash va dunyoviy hamda oxirat manfaatlarini uyg'unlashtirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Muallif nikohni ma'naviy kamolotga xizmat qiluvchi zaruriy institut sifatida baholab, uni zohidlikka qarama-qarshi holda insonning ijtimoiy va ruhiy rivoji uchun muhim omil deb hisoblaydi. Shuningdek, nikoh tushunchasining etimologik tahlili orqali uning biologik, ijtimoiy va ma'naviy jihatlarini yagona tizim sifatida ochib beradi.

Muallifning falsafiy qarashlarida nikohning mohiyati "kullning juz'ga yetishishi" g'oyasi orqali ifodalanib, u oilaviy ittifoqni umumiy borliqning kichik modeli sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, nikoh oddiy ijtimoiy kelishuv emas, balki insoniy hayotda ilohiy tartibning namoyon bo'lishidir. Shu bilan birga, Maxdumi A'zam nikohni eng yuksak ahd sifatida baholab, uning asosiy vazifasi er-xotin o'rtasida mehr-muhabbatni mustahkamlash hamda nasl davomiyligi va axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatishdan iborat ekanini ta'kidlaydi.

Maxdumi A'zamning "Asror un-nikoh" risolasidagi konseptual yadro qismlardan biri juft tanlash aksiologik mezonlari masalasidir. Mutafakkir to'rt asosiy kriteriyni ajratadi va ularning konkret falsafiy talqinini taqdim etadi.

Birinchi kriteriy – bo'lajak hamsuhbatning dindiyonatliligi (axloqiy-aksiologik kompati-billik): mualliflning yondashuviga ko'ra, diyonatli juftlik nikohning barcha boshqa parametrlari uchun kon-stitutiv shart-fundamentni tashkil etadi.

Ikkinchi kriteriy – chehra go'zalligi (estetik-emotsional komponent): biroq mualliflning dialektik tezisiga muvofiq, go'zallik diyonat va axloq bilan organik bog'liqlikda bo'lishi shart, aks holda, u potentsial destruktiv xavf-xatarlarga aylanishi mumkin.

Uchinchi kriteriy – nasl-nasab tabaqaviligi (ijtimoiy-genetik mosligi): o'zbek milliy-madaniy traditsiyasidagi "yetti ajdod surishtirish" amaliyoti bu kriteriy doirasida konseptual asoslab beriladi. Mualliflning empirik kuzatuvchanligi shu jihatda ko'rinadiki, u zamonaviy klinik genetika va epigenetika fanlari kashf etgan irsiy-genealogik determinatsiya prinsipini intuitiv-falsafiy darajada bashorat qiladi.

To'rtinchi kriteriy – yaqin qarindoshlik bo'lmasligi (genetik-biologik diversifikatsiya): mualliflning yondashuviga ko'ra, juftlik tanlovida endogamiya (yaqin qarindoshlik nikohi) ham fizio-genetik (zamonaviy tibbiy ma'lumotlar tasdig'idagi inbreeding effekti), ham psixoenergetik ("ehtiroslarning jo'shqinligi notanishlikka bog'liq") jihatlardan kontrindikatsiyalanadi.

Mazkur yondashuv Maxdumi A'zamning juft tanlash haqidagi qarashlarini zamonaviy psixologiyadagi mating selection va matching theory konsepsiyalari bilan bog'laydi hamda R.Sternbergning muhabbat nazariyasidagi intimlik, ehtiros va mas'uliyat komponentlari bilan uyg'unlikni ko'rsatadi. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, juft tanlashda faqat bir mezonga (boylik, go'zallik yoki nasabga) tayanish nikoh barqarorligini buzuvchi xatodir, shu bois diyonat va axloqiy yetuklik asosiy ustuvor mezon bo'lishi kerak. Shuningdek, Maxdumi A'zam ta'limotida halol mehnat, halol rizq va halol farzand o'rtasidagi uzviy bog'liqlik oilaviy farovonlikning asosiy modeli sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv Naqshbandiya "Dast ba kor, dil ba yor" tamoyili bilan uyg'un bo'lib, mehnat va ma'naviyatning birligini ifodalaydi hamda oilaviy hayotda axloqiy poklik va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maxdumi A'zamning shaxsiy hayoti va amaliy faoliyati uning halol luqma haqidagi ta'limotining hayotiy ifodasi bo'lib, dehqonchilik faoliyati va "Battixiya" risolasidagi mulohazalar nazariya va amaliyot birligini ko'rsatadi. U er-xotin munosabatlarini yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida talqin qilib, oilaviy hayotni nafaqat ijtimoiy, balki chuqur ruhiy hodisa darajasiga ko'taradi. "Farzand otasining siridir" g'oyasi va Hazrat Nuh (a.s.) haqidagi rivoyat orqali ota-bola munosabatlari biologik emas, balki ma'naviy uzluksizlik asosida izohlanadi. Muallifning juft tanlashdagi axloqiy mezonlari, halol turmush tamoyillari va "Dast ba kor, dil ba yor" g'oyasi zamonaviy sharoitda sog'lom oilaviy munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, uning qarashlari gender munosabatlarini qayta talqin qilish, avlodlararo bog'liqlikni mustahkamlash va keksalar mavqeini yuksaltirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Maxdumi A'zam Dahbediy intellektual merosi oilaviy farovonlik paradigmasi va nikoh fenomeni jihatidan klassik tasavvufiy oilashunoslikning konseptual cho'qqilaridan biri hisoblanadi. "Asror un-nikoh" risolasidagi nikoh fenomenologiyasi, juft tanlash to'rtlik kriteriyasi, halol luqma-halol rizq doktrinasi, er-xotin munosabatlarining ibodat-ekzistensial talqini, "Sharhi al-valadi sirru abiyhi" risolasidagi genealogik-ma'naviy uzluksizlik konsepsiyasi yaxlit holda yaxlit oilashunoslik paradigmasini tashkil etadi. Mazkur paradigma nikohni biologik, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar uyg'unligi sifatida talqin etib, juft tanlashda axloqiy mezonlar, halol turmush, er-xotin munosabatlari va avlodlar davomiyligiga mas'uliyatni asosiy tamoyillar sifatida belgilaydi. Bu yondashuv oila institutini mustahkamlashda muhim nazariy asos bo'lib, Maxdumi A'zam merosini zamonaviy oilashunoslik bilan integratsiyalash jamiyat ma'naviy rivoji va kelajak avlodlar farovonligi uchun dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021, 416-bet.

(2). Maxdumi A'zam. Battixiya. Tarjima va izohlar. Samarqand, Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2018, 64-bet.

(3). Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, "Movarounnahr", 2009, 446-bet.

(4). Navro'zova G. Naqshbandiya tariqati ta'limoti. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010, 244-bet.

(5). Sharipova O. Maxdumi A'zam ta'limotida oila va tarbiya masalalari. Buxoro, "Durdona", 2019, 188-bet.

(6). Namozov B. Tasavvuf falsafasida ijtimoiy munosabatlar. Toshkent, "Akademnashr", 2020, 256-bet.

(7). Zoirov E. Maxdumi A'zam Dahbediy meroshunosligi. Samarqand, Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2021, 224-bet.

Arziev Ruslan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Falsafa" kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); https://orcid.org/0000-0002-9006-8599;kkjurnalist@gmail.com)

SOTSIODEMOKRATIK JARAYONLAR VA IJTIMOIY FIKR TRANSFORMATSIYASI: MILLIY VA GLOBAL YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Maqolada sotsiodemokratik taraqqiyot modellarining milliy ijtimoiy-siyosiy tajriba va xalq mentaliteti bilan o'zaro aloqadorligi falsafiy tahlil qilingan. G'arb liberal-demokratik andozalarining milliy voqelikka transformatsiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy va mediamuhit misolida o'rganiladi. Tadqiqotda mintaqadagi mediamarkazlarning ijtimoiy fikrni barqarorlashtirishdagi potensiali, texnologik infratuzilmasi va axborot uzatishdagi subyektiv ziddiyatlar ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy ong evrilishlarida mediatorlarning mas'uliyati va demokratik qadriyatlarni qaror toptirishning institutsional muammolari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *sotsiodemokratiya, Qoraqalpog'iston, mediamarkaz, ijtimoiy fikr, liberal demokratiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiy transformatsiya, mediamakon, jamoatchilik muloqoti, institutsional tahlil.*